



# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan

Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI “O'ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI “YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB – QUVVATLASH YILI”DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan keng ko'lamli islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobjiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha tizimli harakatlarni izhil davom ettirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yugori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabibiy resurslardan unumli foydalanan standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlari yo'naltirish bosqaruv tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

1. 2024-yil 1-martdan boshlab alohida ishslash talab etiladigan, shuningdek, iste'dodli va iqtidori yoshlar Mahallalarda yoshlar bilan ishslash masalalarini muvofiglashtirish bo'yicha respublika komissiyasi qarori bilan “Yoshlar balansi” asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijo etuvchi hokimiyat organlari, **davlat ishtirokidagi korxona va tashkilotlar hamda oly ta'llim tashkilotlari rahbarlari** quritkirlis. Bunda mazkur rahbar:

**har oyda kamida bir marotaba** o'zlariga biriktilgan yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yugori bo'lgan **kasb-hunarga o'qitish orqali bandligini ta'minlash**, hayotda o'z o'rnni topishi, shuningdek, **huquqiy ongi va madaniyati yukseltirishga** har tomonlama ko'maklashib borsin;

o'zlariga biriktilgan **yoshlar muammolari ni hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish** uchun tegishli tashkilotning budjetdan tashqari boshqa manbar bilan hisobidan **zarur mablag'larni** Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartib asosida **yo'naltirishga** ruxsat etilsin.

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib **Mahallalarda yoshlar bilan ishslash masalalarini muvofiglashtirish bo'yicha respublika komissiyasi**, Yoshlar ishlari agentligi (A.Sa'dullayev) hamda yoshlar biriktilgan **vazirlik va idoralar** belgilansin.

2. 2024-yil 1-martdan boshlab mahalla, ta'llim muassasalari, korxona va tashkilotlar tizimida mukofot jamg'armasi **600 million so'm** miqdorida xorijiy tillar (“Ibrat farzandlari”) bo'yicha tanlovlardan, **kibersport** musobaqlar va “**Zakovat**” intellektual o'yinlari yugori saviyadagi tashkil etilsin;

Yoshlar ishlari agentligi va mahalliy hokimliklar tomonidan **kasblar tanlovida** g'olib bo'lgan yoshlarini o'z hududlarida **jihozlangan ustaxonalarni** bilan “Yoshlar daftari” jamg'armasi mablag'lari hisobidan ta'minlash amaliyoti yo'iga qo'yilsin;

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ul etib **Yoshlar ishlari agentligi** (A.Sa'dullayev) belgilansin.

3. Yoshlar ishlari agentligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligining **ekologiya, sog'lon tur mushni** targ'ib qilish kabi ijtimoiy ahamiyatga molik **2010 va volontorlik loyihalari** bo'yicha birinchida bosqichda **bazavii hisoblash miqdorining 200 baravarigacha mablag'ni tanlov asosida ajratish** tartibini joriy etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilis.

4. Yoshlar o'tasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug'ullanishga qo'shimcha imkoniyatlarni tarayish maqsadida:

a) **olivayi tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi** yoshlar tadbirkorligini rivojlanishiga yo'naltirilsin;

b) **2024-yil 1-iyundan boshlab** quyidagilarni nazarda tutuvchi “**Yosh tadbirkor**” tanlovlарini o'tkazish amaliyoti yo'iga qo'yilsin;

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tanlov asosida “**mahalla – tuman – viloyat – respublika**” bosqichlarida yoshlarning istiqbollli biznes loyiha va g'oyalari saralanadi. Bunda, **nogironligi bo'lgan yosh tadbirkorlarning loyiha va g'oyalari** alohida e'tibor qaratiladi;

respublika bosqichida saralashdan o'tgan har bir loyiha bazavii hisoblash miqdorining **1 000 baravarigacha** miqdordagi imtyoziy kreditlar ajratiladi; g'olib bo'lgan biznes loyiha va g'oyalari egalari Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan **xorijiy davlatlarga malaka oshirishga** yuboriladi.

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ul etib **Savdo-sanoat palatasi** (D.Vaxobov) hamda **Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi** (L.Qudratov) belgilansin.

9. 2024-yil 1-maydan boshlab fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun **yangi majburiy to'lovlari va yig'imalarni faqatgina qonunda belgilash amaliyoti** kiritilsin.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 24-fevral, shanba,

24 (23.901)-son

KUN  
HIKMATI

Xudo bizga jonn, aqlni, tilni, dunyo esa imkoniyatni, davlat sharoitni beradi. Qolganiga o'zimiz mas'ulmiz



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews\_uz



https://twitter.com/zarnews\_uz

23-fevral kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining to'qson oltinchi sessiyasi o'tkazildi. Sessiyani Kengash kotibiyati mudiri S.Usimonov boshqardi.

Dastlab deputatlari 2023-yilda viloyatda eksport va investitsiyalarni jalb etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda 2024-yildagi rejolar to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqdilar.

Qayd etilishicha, 2023-yilda viloyatda xorijiy investitsiyalar jalb qilingan loyihalar doirasida 632 million dollar miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilgan. Umumiy qiymati 529,1 million dollar bo'lgan 15 ta xorijiy investitsiya ishtirokidagi yirik loyiha ishga tushirilgan va 2 mingdan ortiq ish o'rni yaratilgan.

- Viloyatdagi 590 ta eksportyor korxonalaridan 650 dan ortiq turdag'i 584 million dollarlik sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilindi, - dedi viloyat investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi boshlig'ining binchini o'rinosari Sherzo Sobirov. - Bu ko'satikchik 2022-yilga nisbatan (19,5 million dollar) 103,5 foizni tashkil etdi. Hozirgi kunga kelib, eksportga chiqarilayotgan mahsulotlari turi 665 dan ortidagi hamda eksport geografiyasidagi davlatlar soni 61 taga yetdi.

2024-2026-yillarda xorijiy investitsiyalar ishtirokida umumiy qiymati 2,5 milliard dollar bo'lgan 64 ta loyihaning manzilli ro'yxati shakllantirildi. Ushbu loyihalar doirasida joriy yilda 1,1 milliard dollar xorijiy investitsiyalar o'zlashtiriladi.

Deputatlari viloyatga investitsiya jalb qilish va eksportni kengaytirish bo'yicha qilinayotgan ishlar bugungi kun talabi darajasida emasligini

**Murojaatlar bilan ishlashda mas'uliyat yanada oshishi kerak**

buzilgan holatlar ko'paygan. Deputatlari murojaatlarda keltirilgan muammolarni hal etish borasida mansabord shaxslarning mas'uliyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarini belgilash hamda ularni navbatdagi sessiyalarda muhokama qilib borish zarurligini ta'kidladi.

Majburiy ijo byurosi viloyat boshqarmasi boshlig'i S.Jabborovning Prezidentining 2020-yil 24-noyabrda “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijo etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” farmoni ijsrosi yuzasidan hisoboti hamda viloyatda 2025-yilda Davlat tibbiy sug'urta tizimini joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash to'g'risidagi masala ham deputatlarning qizg'in muhokamalari ga sabab bo'ldi.

Sessiyada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagi Xalq qabulxonasi mudiri o'rinosari Shoiria Sultanova viloyatda aholi murojaatlarini va muammolari bilan ishlash holatini yuzasidan axborot berdi. Ta'kidlanishicha, 2023-yil davoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalo qabulxonalariga viloyatdan 125 mingdan ortiq murojaat tushgan va 2022-yiliga nisbatan 18 foizga kamaygan. Biroq Paxtachi (9331 ta), Payariq (11017 ta) va Kattaqo'r'g'on shahrida (3454 ta) murojaatlar soni osghan.

Kelib tushgan murojaatlarning 93511 tasi (79,6 foiz) qanoatlantrilgan. Shundan 49524 (42,1 foiz) tasi joriy yechim topgan, 7551 tasi ko'rib chiqish jarayonida.

- Tahlillarimizga ko'ra, viloyatda aholi murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish bo'yicha belgilangan vazifalarning ijsrosi to'liq ta'minlanmayapti, - dedi Sh.Sultonova. - Ayrim davlat hamda o'zini o'zib boshqarish organlari tomonidan belgilangan tablablar lozim darajada bajarilmaganligi obiqabida bu ko'satikchilarning salmog'i kamayish o'rninga oshib boryapti. Shuningdek, murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini

## Bu yil NAVRO'Z qanday nishonlanadi?

Samarganda Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori darajada o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish masalalari mutasaddilar ishtirokida muhokama etildi.

Viloyat hokimi o'rinosari R.Qobilovning ta'kidlashicha, bu yilgi Navro'z bayramining asosiy tadbiiri Qorasuv massividagi “Yangi O'zbekiston bog'i”da umumxalq sayli sifatida o'tkaziladi. Chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, bayramda yangi sahna ko'rinishlari, shoir va yozuvchilarning ijod namunalari, san'atkordan Vatan, tabiat, yoshlik va go'zallik haqidagi yangi qo'shiqlari, xalq og'zaki jodi va ilk marta askiya san'ati vakillarining chiqishlari namoyish etiladi.

Shuningdek, viloyatdagi mahallalar, ta'llim muassasalari, tadbirkor va hunarmandlar tomonidan yarmarkalar tashkil etiladi. Milliy taomlar tanlovi, “xalq o'yinlari va

sport musobaqlari o'tkaziladi.

Tadbirlar Samargand shahridagi Alisher Navoiy nomli markaziy istirohat bog'i, Registon maydoni, Alisher Navoiy nomli ko'cha, Universitet xiyoboni, viloyat mu'siqali drama teatri maydoni, Farohd hamda Kimyogarlar shaharchasida davom etadi va “Mo'jiza” amfiteatrida konsert dasturlari namoyish etiladi.

Viloyatning har bir shahar va tumanida ham Navro'z xalq sayli tarzida keng nishonlanadi.

## Jamoat transporti

muammolari qanday hal etilmoqda?

Bugungi kunda viloyatmizda 567 ta avtobus, 178 ta mikroavtobus 277 yo'nalishda aholiga xizmat ko'rsatmoqda.

- O'tgan yili tadbirkorlarimiz tomonidan 111 ta avtobus va 27 ta mikroavtobus xarid qilindi, - dedi viloyat transport boshqarmasi boshlig'i Akobir Ashurov. - Yevropa Tiklanish va tarraqqiyot banki tomonidan ajratilgan imtiyoziy mablag'lar hisobidan 6 ta elektrobus keltirildi. Rossiyaning “Simmetriya” kompaniyasi loyihasi asosida Samargand shahrida 43 ta yangi yo'nalishlar tarmogi tashkil etilib, 10 tasida avtobuslar qatnovi yo'lg'a

shahar atrofi ekspress avtobus yo'nalishini tashkil etish ko'zda utiligan. O'nga yaqin ko'chalarda avtobus yo'laklarini ajratiladi.

Samargand shahridagi 240 ta avtobus bekatlaridan dastlabki 40 tasiga LED monitorlari o'matlib, avtobus qatnovlari to'g'risidagi ma'lumotlar yoritib boriladi. Yil davomida 94 ta elektrobus xarid qilinib, yana 157 ta avtobus bekatli hamda 5 ta avtovokzal qurilib, rekonstruksiya qilinadi.

Jumlahdan, Cho'ponota maskani hududidagi 4,6 gektar yer maydoniyda.

“SXF-Camping” MChJ tomonidan 50 milliard so'm mablag' evaziga zamona avtoshohbekat qurilishi yakuniga yetkaziladi. To'rtta avtoboshbekat tashkil etiladi. 3,8 gektar yer maydonida elektrobuslarni saqlash uchun avtosaroy quriladi.

Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar natijasida yil davomida 114 million nafer yo'lovchiga sifatli va arzon jamoat transporti xizmati ko'rsatilishi erishiladi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

# “O'ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI “YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB – QUVVATLASH YILI”DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

10. Keng jamoatchilik bilan muhokamalarda bildirilgan takliflar asosida ishlab chiqilgan “O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o'rnlarda – Davlat dasturi) doirasida quyidagilar:

**2024-yilga mo'ljallangan yo'nalishlar kesimidagi amaliy tadbirlar rejalar 1–5-ilovalarga muvoqiq;**

**2024-yilda yo'nalishlar kesimida ishlab chiqilganda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxatlari 6–10-ilovalarga muvoqiq tasdiqlansin.**

Bunda, yo'nalishlar kesimida 2024-yilga mo'ljallagan maqsadli ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabriddagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-300–son qarori bilan tasdiqlanganiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

11. **Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi** doirasida 2024-yilda:

Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning bilimlarni **bohalash tizimi** qo'shimcha 1 000 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilinib, fanlardagi amaliy mashg'ulotlar ulushi 60 foizgacha oshirilsin;

6,7 million nafar 40 va undan katta yoshdagisi aholi orasida **yurak-qon tomir, qandil diabet, o'pkanning surunkali obstruktiv kasalliklari** xavfini aniqlash bo'yicha profilaktik ko'riklar tashkil etilsin;

7,5 ming nafar yoshlar **zamonaviy kasblarga o'qitilishi**, xalqaro imtihon tizimlarida **chet tillari** bo'yicha yuqori ball olgan 6 ming nafar yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilishi ta'minlansin;

10 million nafar aholini **yugurish, futbol, voleybol, stol tennis, shaxmat, milliy va belbog'li kurash** kabi sport turlari bo'yicha marafon va musobaqlarni tashkil etish orqali **ommaviy sportga** jalb qilish choralar ko'rilsin;

2024-yilda Parij shahrida o'tkaziladigan Olimpiya va Paralimpiya o'ynilarida muvaffaqiyatli istirot etish uchun kamida 140 ta litsenziyani qo'rg'a kiritish maqsadida 15 ta olimpiya va paralimpiya markazida hamda Toshkent shahri, Andijon va Toshkent viloyatlaridagi 14 ta sport bazasida barcha zarur sharoitlar yaratilsin.

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib tegishinchiga **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi** (H.Umarova), **Sog'liqni saqlash vazirligi** (A.Xudoyorov), **Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi** (B.Musayev), **Yoshlar ishlari agentligi** (A.S.dullayev), **Sport vazirligi** (A.Ikromov), **O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi** (O.Qosimov), **O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi** (M.Toshxo'jayev) belgilansin.

12. Quyidagilar:

a) **2024/2025-o'quv yilidan boshlab:** Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining 1 tadan tumanida (shahrida) sinov tariqasida **“Mening maktabim”** loyihasi amalga oshirilsin hamda buning doirasida Davlat budgeti mablag'larini hisobidan maktablarga basaviy hisoblash miqdorining **150 barobarida** mablag' ajaratilib, ushbu mablag' 5–11-sinf o'quchilar tanloviqa ko'ra, **elektron doska, kompyuter, sport ji-hozilar, kitoblar** kabi maktablar uchun zarur tovarlarga surflanishi belgilansin;

umumi o'rta ta'limga muassasalarini direktorlarini mejerlik bo'yicha sertifikatsiyalash tizimi joriy etilsin. Bunda, direktorlarga malakaviy talablar aniq belgilansin, ular hars besh yilda bir marotaba attestatsiyadan o'tkazilsin;

b) **2025-yil 1-yanvardan boshlab** Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi umumi o'rta ta'limga muassasalarida **ona tili va adabiyot** hamda tanrix fanlari bo'yicha Olyi ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining milliy baholash tizimida olingan tegishli darajadagi sertifikatiga ega bo'lgan va ushbu fanlardan **dars beruvchi pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida har oylik qo'shimcha ustama to'lanishi** belgilansin;

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi** (H.Umarova) belgilansin.

13. **2024-yil 1-sentyabrdan boshlab** Qashqadaryo va Surxonario viloyatlarida tajriba-sinov tariqasida **umumiy o'rta ta'limga maktablariga olis hududlardan qatnaydigan o'quchilar uchun autsorsing asosida bepul avtobuslar qatnovi yo'lgan qo'yilsin.**

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib **Qashqadaryo viloyati hokimligi** (M.Azimov) va **Surxonario viloyati hokimligi** (U.Qosimov) belgilansin.

14. **2024-yil yakuniga qadar** ehtiyojdan kelib chiqib, viloyatlar markazlari, shuningdek, Toshkent va Nukus shaharlarida kamida bittdan **o'g'ir genetologik, onkologik va klinik immunologik kasalliklari** bor bemorlarga **paliativ yordam** ko'rsatuvchi xospislar tashkil etilsin.

Bunda, xospislarni tashkil etish, ularning **moddiy-teknika bazasini** mustahkamlash va faoliyatiga **doimiy ko'maklashish** loyihalari uchun Olyi Majlis huzuridagi Novadlat notijorat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan **grantlar e'lon qilib borish amaliyoti** yo'lgan qo'yilsin.

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib **Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlari Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari** belgilansin.

15. Sog'liqni saqlash vazirligi (A.Xudoyorov):

a) **2024-yil 1-mayga qadar:** 2025-yildan boshlab katta yoshdagisi aholi orasida **yuqumli bo'lmagan kasalliklar xavfli omillarining tarqalganligini** o'rganish;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (H.Umarova)

bilan birgalikda 2026-yildan boshlab o'tkaziladigan maktab o'quchilarini orasida **tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishning tarqalganlik** hamda ularning psixologik hotlatin o'rganish bo'yicha rejani belgilansin;

b) **2024-yil 1-dekabrga qadar** Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) bilan birgalikda Yagona interaktiv xizmatlari portali orqali sog'iqliq saqlash sohasida ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sonini **17 tadan 24 taga** yetkazsin va buning doirasida fuqarolarning **onkologik, kardiologik va endokrinologik skriningdan** o'tishi natijasi, ularni davolash uchun ajratiladigan pullar to'g'risida ma'lumot olish imkoniyatini yaratilsin.

16. Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

**2024-yilda** nogironligi bo'lgan shaxslarni **zamonaviy protez-ortopediya** moslamalari va **reabilitatsiya qilish texnik vositalari** bilan ta'minlashning yangi tizimi bosqicha ma'bosqich joriy qilinsin;

**2024-yil 1-sentyabrdan boshlab** pensiya tayinlashda bir vaqtning o'zida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idi pulni olish bilan bog'liq harakatlarni **proaktiv tarzda amalga oshirish**, nogironlikni belgilashda esa, nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan **imtiyozozar to'g'risida xabardor qilish** tartibi joriy etilsin;

**2024-yil 1-dekabrdan boshlab** yolg'iz yashayotgan hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga Toshkent shahrida eksperiment tariqasida tegishli yo'nalishdagi **nodavlat tashkilotlar orqali** Ijtimoiy himoya milliy agentligi mablag'larini hisobidan **ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** amaliyoti yo'iga qo'yilsin.

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib **Ijtimoiy himoya milliy agentligi** (M.Olloyorov) hamda **Iqtisodiyot va moliya vazirligi** (O.Fozilkarimov) belgilansin.

17. **Og'ir atletika bo'yicha milliy sport maktabining xalqaro nufuzini** oshirish maqsadida 2024-yilda og'ir atletika bo'yicha barcha yosh toifasidagi sportchilar bilan **individual ishlash** tizimini yaratish hamda ularning professional tayyorgarligini tashkil etish uchun Chirchiq shahrida **Og'ir atletika markazi** tashkil etilsin.

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib **Ijtimoiy himoya milliy agentligi** (M.Olloyorov) hamda **Iqtisodiyot va moliya vazirligi** (A.Y.Haydarov) belgilansin.

18. **Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash** yo'nalishi doirasida:

yalpi ichki mahsulot o'sish sur'ati **6 foizdan kam bo'lmagan** darajada bo'lismeni, investitsiyalar esa yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan kamida **30 foiz bo'lismeni ta'minlash** choralar ko'rilsin;

iqtisodiy tarmoqlariga qiyatmi **18 milliard dollar bo'lgan 309 ta yirik loyihalar** ishga tushirilsin;

yllik inflyatsiya darajasi **9 foizgacha** va **fiskal taqchilik 4 foizgacha bo'lishi** ta'minlansin, keyinchalik inflyatsiya va Davlat budgeti taqchilliq ko'rsatiklarni pasaytirish choralar ko'rilsin;

iqtisodiy tarmoqlariga **275 trillion so'm kredit resurslarini** yo'naltirish, shu jumladan, **41 trillion so'mlik mikromoliya xizmatlari** ko'rsatilishi ta'minlansin;

banklar tomonidan taqdim etiladigan **kredit stavkalari bozor mexanizmlari asosida 2–3 foiz bandga pasaytirish** uchun zarur sharoitlar yaratilsin.

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib **Bosh vazir o'ribbosari – J.Qochorov** va **Markaziy bank** (M.Nurmuratov) belgilansin.

19. **2024-yil 1-apreldan boshlab** davlat investitsiya dasturlari doirasida markazlashgan manbalar hisobiga amalga oshiriladigan yirik loyihalarga sanoat kooperativasi **ta'minlash** tizimini joriy etilsin.

Bunda, loyihalar doirasida mahalliy korxonalarda **zarur mahsulotlari o'zlashtirish va xarid qilish tavisya etiladigan mahsulotlar** ro'yxati, mahalliy **mutaxassislarini jafo qilish rejasiga** va **ularga qo'yiladigan talablar** nazarda tutilasini.

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib **Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi** (L.Qudratov) va **Iqtisodiyot va moliya vazirligi** (B.Xo'jayev) belgilansin.

20. Respublikada **“yashil iqtisodiyot”ga** o'tish uchun quay sharoitlarni yaratish va **“yashil energiya”** manbalari salmog'ini oshirish maqsadida:

a) **2024-yil 1-aprelda qadar:**

**“yashil energiya”** sertifikatlari aylanmasi **bozor tamoyillari asosida** yo'lgan qo'yilishi ta'minlansin;

xalqaro issiqxona gazi savdosini bo'yicha loyihalarni amalga oshirish tartibi tasdiqlansin;

b) **2024-yil 1-apreldan boshlab** iqlim o'zgarishi sohasida monitoring, hisobot berish va tekshirishning zamoni yizimi (MRV) va ma'lumotlar bazasi bosqicha ma'bosqich yo'lgan qo'yilsin;

v) **2024-yil yakuniga qadar** xorijiy investorlar ishtirokida Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Namangan va Navoiy viloyatlarida umumiyy quvvati **2 700 MVt** bo'lgan **ta'yiq qoyish elektr stansiyalarini** ishga tushirish ta'minlansin.

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib **Iqtisodiyot va moliya vazirligi** (A.Xudoyorov) va **Energetika vazirligi** (J.Mirzamahmudov) belgilansin.

21. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A.Ortiqov) bir oy muddatida:

uch oydan ortiq muddat mobaynida ochiq savdolarda sotilmagan **davlat aktivlarining boshlang'ich bahosini 50 foizgacha bosqichma-bosqich pasaytirish;**

yer uchastkalari olti oy davomida sotilmaganiga to'loving **15 foizini uch yo'muddatda, qolgan qismini 10 yil muddatda bo'lib to'lash** imkoniyatini yaratish bo'yicha amalii choralar ko'rsin.

22. **2024-yil 1-apreldan boshlab** chegara bojxona postlarida **meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari rasmiylashtirish** bo'yicha karantin, sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va veterinariya sohalaridagi

nazorat funksiyalari bojxona xizmati organlariga o'tkazilsin.

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib **Bojxona qo'mitasi** (A.Mavlonov) belgilansin.

23. **Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatida** ochiqlik darajasini keskin oshirish va **korporativ boshqaruvni yana da takomillashtirish** maqsadida 2024-yil 1-iyulidan boshlab davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan yirik soliq to'lovchilar korporativ ijtimoiy mas'uliyat (CSR) hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) holati o'ziga qo'shilish yuzasidan davlat organlari **faollarning ish sifati yuzasidan roziligi** olinganidan keyingina foydalanshinga qabul qilish tartibi joriy etilsin;

**2024-yil 1-avgustga qadar** fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariiga “Tashabbusli budget” doirasidagi loyihalarni **tashabbuskorlar, mahalla raisi va faollarning ish sifati yuzasidan roziligi** olinganidan keyingina foydalanshinga qabul qilish tartibi joriy etilsin.

Mazkur bandning to'liq, sifatli va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib **Iqtisodiyot va moliya vazirligi** (A.Y.Haydarov) va **Davlat aktivlarini boshqarish agentligi** (A.Ortiqov) belgilansin.

24. **Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni</b**



## Yo'lsozlar rahbari aholidan iltimos qildi

Viloyat matbuot uyida tashkil etilgan anjumanda avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi boshlig'i Ahad O'rroqov viloyatimizda yo'l infratuzilmasi sohasida olib borilayotgan ishlari, yangi barpo etilayotgan ko'priklar, "Tashabbusli budget" va boshqa dasturlar haqida ma'lumot berdi.

- Viloyat hududini qariyb 22 ming kilometr uzunlikdagi avtomobil yo'llari kesib o'tgan bo'lib, uning 4097 kilometri umumiyo foydalishdagi yo'llar bo'lib, 385 kilometri xalqaro, 979 kilometr davlat, 2 733 kilometri esa mahalliy ahamiyatiga ega hisoblanadi, - dedi A.O'rolov.

- Shuningdek, ichki xo'jalik yo'llari, shahar va qishloqlarning ko'chalari 17806 kilometrni tashkil etadi.

O'tgan yili turli dasturlar asosida 1435,8 kilometr yo'l, 28 ta ko'priklar ta'mirlanib, foydalishga topshirildi. Jumladan, Investitsiya dasturi asosida shahar ko'chalarining 51 kilometr qismida ta'mirlash ishlari olib borildi. 278 qishloq va mahallaning 451,3 kilometr ichki yo'llari ta'mirlandi, 298 qishloqda 319,5 kilometr ichki yo'l va 6 ta ko'priklar to'liq ta'mirlash ishlari bajarildi.

"Ochiq budget" loyihasi asosida 297,8 kilometr, "Obod xonadon", "Obod ko'cha", va "Obod mahalla" mezonlari asosida 4 ta mahallada 13,8 kilometr yo'iga asfalt yotqizildi.

Joriy yilda 2199 kilometr yo'l, 24 ta ko'priklar ta'mirlanadi, 12 ta yangi svetoforlar o'rnatiladi.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**  
**Husan ELTOYEV**  
(surat).

tilidi. 33 kilometr piyodalar va veloyo'laklar quriladi. 61,5 yo'l segment-beton qilinadi. Xitoydan soatiga 120 tonna asfalt ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan texnologiya olib kelimiz. Yana 3 ta shunday loyiha bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.

- Viloyatimiz yo'l infratuzilmasini yaxshilash uchun ko'p mehnat qilinmoqda, - deydi Ahad O'rroqov. - Xalqaro magistral yo'llar, shahar ko'chalari yoqalarida yashil maydonlar tashkil etilib, anvoyi gul, daraxt va buta ko'chatlari ekilgan. Ko'rgan ko'z quvonadigan darajada yashnab turibdi. Biroq ayrim fuqarolar tomonidan mana shu yashilik payhon qilmoqda. Yo'l yoqalarida non, qovun-tarvuz sotuvchilar ming azob bilan ko'kartirilgan ko'chatlarni, maysazorni bosib tashlayapti. Iltimos, yashillikni oyqosti bo'lishiga, payhon qilinishinga yo'l qo'yamang!

Matbuot anjumanida jurnalist va blogerlar o'zlarini qiziqitgagan savollariiga mutaxassislardan javob olishdi.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**  
**Husan ELTOYEV**  
(surat).

## "Besh tashabbus olimpiadasi"ning joriy yilgi mavsumida nimalar o'zgaradi?

Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va iste'dodli yoshlarni kashf qilish maqsadida joriy yilning 1-martidan boshlab "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida navbatdagi tanlov va sport musobaqlari start oladi.

Mavsum davomida madaniyat va san'at yo'nali shida "Bo'zatov yoshlar ovozi" va "Yosh musavvir", sport yo'nali shida yengil atletika, stol tennis, workout, mini futbol, futbol, armresting, voleybol, stritbol, kuras, shashka, shaxmat, gimnasticha "Besh tashabbus paralimpiadasi", kompyuter texnologiyalari va IT yo'nali shida kibersport, kitobxonlik va intellektual o'yinlar yo'nali shida "Yosh kitobxon", "Yosh kitobxon oila", "Mushoira", "Ibrat" chet tillar, dizaynerlik, elektronmontaj ustasi, payvandlash ustasi yo'nali shidi qo'shilgan.

Ayni paytda mazkur olimpiadalarida ishtirok etish uchun 5 tashabbus.uz saytidan ro'yxatdan o'tish davom etmoqda.

novvoychilik, yosh quruvchi, dizaynerlik, elektronmontaj ustasi va payvandlash ustasi kabi tanlov va sport musobaqlari o'tkaziladi.

Bu yilgi tanlov va musobaqlar qatoriga "Yosh kitobxon oila", novvoychilik, yosh quruvchi, armresting, yosh musavvir, "Mushoira", "Ibrat" chet tillar, dizaynerlik, elektronmontaj ustasi, payvandlash ustasi yo'nali shidi qo'shilgan.

Ayni paytda mazkur olimpiadalarida ishtirok etish uchun 5 tashabbus.uz saytidan ro'yxatdan o'tish davom etmoqda.



## Mahallaga kitob ulashing!

Adliya vazirligi tashabbusi bilan respublikamizning barcha tuman va shaharlardagi 4-sektor mahallalarida yoshlar uchun kutubxonalar tashkil etishga qaratilgan ziyo-ulash loyihasi amalga oshirilmoqda. Unda viloyat adliya boshqarmasi va tizim xodimlari ham faol ishtirok etishyapti.

Xususan, loyiha doirasida viloyatning 4-sektor hujdudagi barcha mahallalar binosida mo'jaz kutubxonalar tashkil etildi. Adliya idoralari xodimlari namuna ko'rsatib, ularga 500 nusxdan ortiq kitob hadya etishdi.

- Loyihadan ko'zlangan maqsad yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilishdir,

- deydi viloyat adliya boshqarmasi matbuot xizmati rahbari Mansur Hasanov. - Ertamiz egalari ko'proq mutolaa qilsa, intellektual salohiyati, bilimi oshadi, demakki, jamiyatimizga nafi tegadigan yaxshi kadr bo'lib yetishadi. Buning uchun barchamiz hamjihatlikda harakat qilishimiz kerak.

## Radioelektron vositalarning qaysi turlarini kimlar ishlashi mumkin?

Viloyat bojxona boshqarmasida Vazirlar Mahkamasining "Radiochastota spektridan foydalishin sohasida ruxsat etish hamda radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalardan foydalishni tartibga solish to'g'risida"gi qarorning yangi tahriri yuzasidan o'quv seminar o'tkazildi. "O'zkom-nazorat" inspeksiyasi viloyat hududiy shu'basi, "Elektromagnit moslashuv markazi" DUK va viloyat elektrnomagnit moslashuv xizmati mutaxassislar bilan hamkorlikda o'tkazilgan seminarda qaror ilovalari bilan tasdiqlangan nizom talablari bo'yicha yuklatilgan vazifalar muhokama qilindi.

- Respublikada radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalar, ya'nı ratsiyalarni sobit olish (berish), sobit va (yoki) o'rnatish (qurish), xoridan olib kirish va foydalishni tartibiga rioya qilinishi ustidan nazorat "O'zkom-nazorat" inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi, - deydi "O'zkom-nazorat" inspeksiyasi viloyat hududiy shu'basi mutaxassisasi Rafiq Karimov. - Shuningdek, viloyat hududiga bojxona postlari orqali olib kiriladigan har qanday radioelektron vositalar hamda yuqori chastotali qurilmalar aniqlangan taqdirda, viloyat elektrnomagnit moslashuv xizmatiga murojaat qilinadi. Bunda mutaxassislar tomonidan belgilangan tartibda texnik ekspertiza o'tkazilib, ushu qurilmalardan foydalish mumkin yoki foydalishni taqiqlanganligi yuzasidan xulosalar beriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar respublikada

radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalar, ya'nı ratsiyalarni sobit olish (berish), sobit va (yoki) o'rnatish (qurish), xoridan olib kirish va foydalishni tartibiga rioya qilinishi ustidan nazorat qonunchilik hujjaligiga muvofiq axborotlashtirish va telekomunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalar ni sobit olish (berish)ning belgilangan tartibiga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish "O'zkom-nazorat" inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar hamda viloyatdagi elektrotexnika vositalarini sotuvchi ulug'uri va chakana savdo shoxobchalari quvvati 10mVt dan yuqori bo'Imagan va 446,0-446,2 MHz chastota diapazonida chiqish quvvati

0,5Vt dan yuqori bo'Imagan PMR-446 sinfiga kichik radiusda ishlovchi radioelektron vositalari, ya'nı ratsiyalarga radiochastota organlarining ruxsat etuvchi hujjatlarni rasmiylashtirmasdan olib kirish, sotish va foydalishi mumkin.

Seminarda "Elektromagnit moslashuv markazi" DUK viloyat elektrnomagnit moslashuv xizmati mutaxassislarini Ahmad Olmosov va Bekmirzo Janayev radioelektron vositalaridan qonuniy foydalish bo'yicha ko'rsatma berdi.

"Radiochastota spektri to'g'risida"-gi Qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 801-sون qaroriga asosan, fuqarolik maqsadlaridagi ruxsat etilgan radioelektron vositalardan foydalishni qoidalarini buzish javobgarlikka sabab bo'ladi. Ya'nı, ratsiyalardan foydalish talablariga rioya etmaslik, tegishli ruxsatnomasiz va sertifikatsiz olib kirilgan, sotuvda bo'lgan, ishlatalayotgan hamda radioxalaqlar keltirib chiqaruvchi radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalardan g'ayriqonuniy foydalish ma'muriy javobgarlikka olib keladi.

**Komil RAHMATOV.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'londar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## "JOMBOY DON MAHSULOTLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"Jomboy don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining 2023-yil yakuni bo'yicha navbatdagi umumiyo yig'ilishi 2024-yil 14-mart kuni (haftaning payshanba kuni) saat 09:00 da Jomboy tumani, Jomboy shahri, Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 1-uy manzilida joylashgan

"Jomboy don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati ma'muriy binosi majlislar zalida o'tkaziladi.

**Jamiyat aksiyadorlarining 2023-yil yakuni bo'yicha yillik umumiyo yig'ilishi kun tartibida quyidagi masalalar muhokama qilinadi:**

**UMUMIY YIG'ILISH KUN TARTIBI:**  
1) Aksiyadorlar umumiyo yig'ilishining ishchi prezidiumi va sanoq komissiyasini saylash;

2) Aksiyadorlar umumiyo yigilishining reglamenti va kun tartibini tasdiqlash;

3) Jamiyat kuzatuv kengashining 2023-moliyaviy yil yakunlari bo'yicha hisobotini tasdiqlash;

4) Jamiyatning 2023-yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti, 2023-yilning asosiy natijalari hamda 2024-yilda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar to'g'risida boshqaruva raisining hisobotini tasdiqlash;

5) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-avgustdagisi PQ-4426-soni qarori talablariga muvofiq jamiyat boshqaruva raisining ishlab chiqarish, mahalliy lashirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda axborot texnologiyalari masalalari bo'yicha birinchi o'rinnbosarining 2023-yil yakunlari bo'yicha hisoboti;

6) Jamiyatning 2023-moliyaviy yil yakun-

lari bo'yicha buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti hamda foyda va zararlarini tasdiqlash;

7) Jamiyat taftish komissiyasining 2023-moliyaviy yil yakunlari bo'yicha tekshirish hisoboti va xulosasini tasdiqlash;

8) Jamiyatning 2023-yil moliyaviy yil yakunlari bo'yicha tashqi auditorlik tashkiloti "ZAMIN OIL-AUDIT" MCHJning xulosasi (MHXS, MHMS) hamda 2023-yil uchun SMK, SYK va ularning bajarilishi foizlarining hisoblangan miqdorini tekshirish natijalari yuzasidan jamiyat tashqi auditorining xulosasini eshitish va tasdiqlash;

9) 2023-yil yakuni bo'yicha jamiyat foydasining taqsimlanishi, ustav fondidagi aksiyalarga hisoblanadigan dividend miqdorining belgilanishi va dividend to'lash muddatini tasdiqlash;

10) Jamiyatning 2024-yilgi faoliyati uchun kuzatuv kengashiga a'zolarini qayta saylash;

11) Jamiyatning 2024-yilgi faoliyati uchun taftish komissiyasi a'zolarini qayta saylash;

12) Jamiyatning 2024-yilgi faoliyati uchun ijroiya organi rahbari va a'zolari bi-

lan tuzilgan mehnat shartnomasi muddatini uzaytirish;

13) Jamiyatda 2024-yil yakuni bo'yicha auditorlik tekshiruvi o'tkazish uchun auditor xizmatini ko'sratuvchi tashkilotlarni taklifini ko'rib chiqish hamda ularga to'lanadigan xizmat haqiqi miqdorini belgilash;

14) "ZAMIN OIL-AUDIT" MCHJ tomonidan 2023-yilda korporativ boshqaruva tizimini baholash xulosasini eshitish va tasdiqlash;

15) Davlat ro'yxatidan chiqarilib, faoliyati tugatilgan yuridik shaxsning ko'p yillardan buyon undirilmasdan kelayotgan umidsiz, muddati utgan debitor qarzdarliklari yuridik shaxs tugatilganligi haqidagi tegishli hujjatlarga asosan jamiyat balansidan chiqarish;

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiyo yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning "Aksiyadorlik jamiyatlariga aksiyadorlarning reestri"ni shakllantirish sanasi 2024-yil 20-fevral kuniga va yillik umumiyo yig'ilishga qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar

ning reestrini shakllantirish sanasi 2024-yil 7-mart kuniga belgilangan.

**Aksiyadorlarni ro'yxatga olish 2024-yil 14-mart kuni saat 08:00 dan 09:00 ga qadar davom etadi.**

Yig'ilishga aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari va ularning vakillari amalda qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnomalar bilan kelishlari so'raladi.

**Murojaat uchun telefon: +99866-240-71-71.**

**Jamiyatning elektron pochta manzili: jomboydon\_aj@mail.ru**

**Hurmatlari aksiyadorlar!** Jamiyat aksiyadorlari umumiyo yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi axborot va boshqa ma'lumlarni jamiyat aksiyadorlariga sifatli va tezkor yetkazilishini ta'minlash maqsadida

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlariga aksiyadorlarning reestri"ni shakllantirish sanasi 2024-yil 20-fevral kuniga va yillik umumiyo yig'ilishga qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestri ni himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, elektron pochta orqali amalga oshiriladi. Shu bois sizdan elektron pochta manzilingizni (Email) taqdim etishingiz lozimligini ma'lum qilamiz.

**JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.**

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum To'reyeva Ranoga (2020-yil 1-noyabrdagi vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini

# Ota yurt

yoxud adib

Shukur Xolmirzayevning  
bulung'urlik ajdodlari haqida

**O'zbekiston xalq yozuvchisi Xolmirzayev  
Shukur Fayzulla o'g'lining ota avlodlari  
bo'lgan Hojito'p qavmi Bulung'ur tu-  
manining Bedana mahallasidagi Dasht-  
kiovul qishlog'ida istiqomat qilishgan.**

Bu borada adibning asarlariga yozilgan so'z boshida, zamondoshlari xotiralarida ham avlod-ajdodlari to'g'risida keng ma'lumotlar keltirilgan. Qolaversa, Shukur akaning singlisi Ra'no Erkayevan 2018-yilda chop etilgan "O'tmishga nigo" xotiralar kitobida adibning ajdodlari, sulo-lanig qaribki ikki yuz yillik tarixi yoritilgan.

Asli Surxondaryo viloyati, Boysun tumanida tug'ilgan Shukur aka oilasi yoki ijodkor do'stleri, shogirdlari bilan qishlog'imizga kelsa, davrada oqsoqlular hozir bo'lishardi. Suhbatlar qizigan-da Shukur aka: "Ko'proq qishloqlaringiz tarxi, ota-bobolarimizning o'tmishi haqida gapirib bersalaringiz", deyishni kanda qilmasdi. Shukur aka taom yemasa-emasdi, lekin bobolarimizning o'tmishimiz haqidagi hangomalarini maroq bilan tinglardi. Goh-gohida: "Otam haqida ko'proq bilganlaringizni aytib bering", deb qo'shib qo'yardi.

Afsuski, Boysunga surgun qilingan otasi Fayzulla aka "xalq dushmani" sifatida qamalgan, keyinroq Sibirga surgun qilinib, otishga hukm etilgan. U kishining amakisi, Bedana qishlog'ining birinchi rai-si Sattor Farmonov ham bir so'zligi, cho'rtkesarligi uchun doimo ta'qib ostida bo'lgan. Ushbu shaxslar haqida gapiresh taqiqlangani uchun ulan haqidagi ko'plab tarixiy huqiqatlari, suratlar yo'q qilingan. Shu bois Shukur aka vafotiga qadar bulung'urlik ota-bobolari, ajdodlari haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lomadi.

Amro biz keyingi 15-20 yil ichidagi izlanishlar, surishtiruvlar natijasida avlod-ajdodlari mizning o'tmishini tarixiy real faktlar asosida atroficha o'rganishga muvaffaq bo'ldik.

Asli tuyqli yuz urug'iqa mansub bo'lgan Farmon Rahmatilla o'g'li 1837-yil tavallud topgan. U otasi Rahmatilla qoridan ilk saboqni oлgan. Uning shajarasida qayd etilishicha, Farmon bobo o'ta ziyrak, zukko bo'lib voyaga yetadi. Qaddi-qomatining bo'liqligi, bo'ydorligidan aka-ukalari ichida ajralib turgan. O'n-o'n besh yoshida "Haftiyak"ni, payg'amarbiramiz hadislarini, Qur'onni karim oyatlari ni to'liq o'zlashtirgan. Dunyoviy ilmlarni, allomalar asarlarini qiziqish bilan mutolaa qilgan. Uylangach, Xolmirza, Boymirza ismli farzandlari tug'ilgan, turmush o'rtoq'i kasallikdan vafot etadi. Ikkinci yilcha vaqt o'tgach, Rahmatilla qori o'g'li Farmonni ikkinchi bor Xurmi qishlog'idan uylantiradi. Ikkinci ayolidan tug'ilgan farzandlariga Sattor, Qimmatoy, G'affor deb ism qo'yadi.

Farzandlarining savodxon, o'qimishli kishi-lar bo'lib kamol topishini istagan Farmon bobo to'ng'ich o'g'li Xolmirzani yetti yoshida Niyoziyat qishlog'idagi mullaga shogirdlikka beradi. Xolmirza bo'y "Haftiyak"ni to'liq o'zlashtirib, dunyoviy bilimlardan saboq olgach, otasi uni Bedana qishlog'idagi nomdor domлага toliblikka topshiradi. Boboning o'zi ham Qur'onni karim oyatlari yod olishga, dunyoviy ilmlarni o'rganishga kirishadi. 18 yoshga to'lganida ustozniunga Buxorodagi Mir arab madrasasiga o'qishga borishi uchun tavsiyanano yozib beradi. Farmon bobo bu xushxabardan xursand bo'lib, 1870-yilning oxirlarida o'g'li Xolmirzani Buxorodagi "Mir arab" madrasasiga o'qishga joylashtiradi.

Farmon hojinining o'g'li Xolmirza bobo madrasada 7 yil ta'lim olib, mullalik maqomiga ega bo'ladi. Amiring farmoni bilan Shahrisabz muzofotining Boysung'ir dahasiga qozilikkaya tayinlandi. Bir muddat shu vazifada ishlab, Bedanaga qaytib keladi. Otasi Farmon hoji uni qishloqdagisi qorining qizi Ulqizga uylantiridi. Bu orada Buxoro amiri Abdulla ham uni huzuriga chaqirib, amirlikning Chorjo'y vohasiga (1888 yoki 1890-yillarda) bosh gozi etib tayinlaydi. Xolmirza bobo o'n besh yildan ortiq oila-si bilan Chorjo'yda yashaydi. Ularning besh farzandi - Mayram, Abdulla, Fayzulla, Sayfulla, Narzulla ham ota-onasining tarbiyasini olib, komil inson sifatida voyaga yetadi. Turmush o'rtoq'i kasallikka chalinib, olamdan o'tgach, qo'shni qishloqdagisi Melikol moga uylanadi. Ikkinci ayolidan G'aybullu, Bibizaynab, Bibirobiya, Bibiroziya, Bibisora, Norbibilan dunyoga keladi. Bedana qishlog'iga qaytib kelgach, Nebo'sa qishloq masjidida imomlik qildi.



Shukur Xolmirzayevning otasi Fayzulla aka qishlog'imizda birinchi bo'lib olyi ma'lumot oлgan, O'rta Osiyo davlat universitetini bitirgan. Samarqanddagi xotin-qizlar maktabida tahsil olayotgan Xayrinisoga uylanadi. Unga uylanib, Omonulla, Rahmatulla, Habibulla ismli uch farzandli bo'ladi. Fayzulla bobo Bulung'urda jadidchilik harakatiga asos soladi. Nebo'sa qishlog'ida 1924-yil boshlang'ich maktab ochib, 1928-yilgacha unga mudirlik qiladi. Yangi maktabga saboq berish uchun shu atrofdan o'qimishli, ziyozi kishilarni jalb etadi. O'zbekiston rahbari Yo'ldosh Oxunboyev uni 1928-yil Samargandga maorif mudirligiga ishga taklif etadi. Bi vazifada ishlash barobarda Samarganda faoliyat olib borayotgan jadidchilar bilan mustah-kam aloqa o'rnatadi. Shaharda chop etilayotgan bir qator markaziy gazetalarda maqolalari bilan qatnashib turadi.

G'alamsi, ig'vogar ayrim kimsalar bobo-mizning yutuqlarini ko'ra olmay, unga tuhmatalar uysushtiradi. 1930-yilning o'rta lari Toshkentga chaqiradi: "Ig'vogar, g'alamsilar ustingizdan turli tuhmatalar uysushtirayti, qora ro'yxatga tushib qolqansiz. Sizni yaxshi bilaman, halol ishlayatsiz. Lekin na chora, ishingizni gaplashib qo'yibman, bugunoq Boysunga ketishingiz kerak, bo'limasa, kech bo'ladi. Qo'iga olishlari mumkin. Vaqti-soati kelib, o'zim sizni markazga chaqiritir olaman", degan ekan.

Boysunga kelgan bobomiz ishni "upolkomzak" boshlig'i (hozirgi tuman molinya bo'limi) vazifasidan boshlaydi va bir vaqtning o'zida tumanning "G'alla fronti" gazetasiga muharrir etib tayinlandi. O'sha kezlarida Boysun respublikadagi eng ko'zga ko'rangan muzofotlardan biri hisoblangan. Gazeta sahfalarida birin-ketin dolzarb mavzularda hamda yangi tuzum dushmanlarining g'ala-misliklarini keskin fosh etuvchi tanqidiy maqolalar chop etila boshlanadi. Shu bois gazeta tahririyatinining ham obro'si tobora oshib borayotgandi. Tabiiyki, gazetaning kundan kunga oshib borayotgan nufuzi, qolaversa, yangi muharriri Fayzulla bobomizning qat'iyati, cho'rtkesarligi, bir so'zli-ligi bir to'da g'alamis, ig'vogarlarga yoqmaydi. Biri partiyadan haydalgan, biri yangi tuzumda ro'y berayotgan o'zgarishlarni, yangiliklarni ko'ra olmaygan, ichi qora, tuhmatchi gu-ruhbozlar tumandagi sog'lon fikri rahbarlar ustidan yuqori tashkilotlarga, hatto Markazqo'm kotibi Staling ketma-ket yumaloq xatlar uyshtiradi. Tabiatan mag'rur, cho'rtkesar bo'lgan Fayzulla bobo ularning bu qilmishlariga parvo ham qilmaydi. Aksincha, tumanning ravnaqni uchun halol, pokiza mehnat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Fayzulla akadan keyin Xolmirza bobo birin-ketin urushga ketgan boshqa farzandlaridan ham judo bo'ladi. Umrining so'nggi kunlarida "Boysunga borb, nevaralarimi ko'rib kelsam", deb juda orzu qilar ekanlar. Biroq xastaligi tufayli bora olmagan. Umrining so'nggi kunlarida Shukur aka va Ra'no opamizni ko'p eslag-an ekan:

Bulung'urning tog'idan lochinimni  
uchirdim,  
Boysunning tog'laridan ko'z tikadi  
bollarim...  
Xolboy QOSIMOV.

Shaxs va jamiyat

Zarafshon

Bizning suhbat

Keyingi paytlarda teatr, kinoteatr va konsert zallariga odamlar kirmay qo'ydi. Ular san'atkorlarning chiqishlarini hatto televide niye orqali tomosha qilishdan ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardagi sahfalarda kuzatishni afzal ko'ryapti. Bir paytlar ko'pchilikni o'ziga rom etgan, "Handalak" hajviy ko'rsatuvidagi qatra xandalar o'rnni ijtimoiy tarmoqlardagi turli xil bo'lar-bo'imas "vayn"lar egallayapti. Buning qanday ijobjiy va salbiy jihatlari bor? Taniqli so'z ustasi, iste'dodli san'atkor Ortiq Sultanov bilan suhbatimizda shu va boshqa savol-larga javob olishga harakat qildik.

## "HANDALAK" ning TAQDIRI NIMA BO'LDI?

- Uzoq vaqt poytaxt da ijod qildingiz va bu-gun yana Samarqand dasiz. Bunga nima sabab bo'ldi?

- Bir paytlar har qaysi ijodkor Toshkentga intillardi. U yerda televide niye orqali chiqish imkoniyati bo'lardi. Men ham do'stim Zokir Ochchidiyev bilan birga jamaa tuzib, tanilish istagida poytaxtga yo'l olganimiz. Harakatlarimiz besamar ketmadi. "Handalak" nomi bilan turkum hajviy ko'rsatuvilarimiz orqali muxlislar ko'ngilning joy olish baxtiga mayuassar bo'ldik. Bugungi kunda esa tanilish, mashhur bo'lish uchun Toshkentga borish shart emas. Uyda o'tirib ham internetda ijtimoiy tarmoqlar orqali chiqishlar qilib, bu istakni amalga oshirsa bo'lyapti. Samargandga qaytishimning asosiy sabablaridan biri bu yerdagi ijodi yuhiitni rivojlantirishga hissa qo'shish, yosh iste'dodli ijodkorlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishdir.

- Samarqanddagi bugungi ijodiy muhit haqida nimalar deya olasiz?

- To'g'risini aytil kerak, bu yerdagi ijodiy muhit juda og'ir. Samarqand shahri madaniyat bo'limida bir muddat rahbar bo'lib ishладим. 60 kishilik jamaoda bor-yo'g'i 4-5 nafar xodim olyi ma'lumoti. Bundan tashqari, san'atkorlarning aksariyati fono-grammada foydalani, uestiga ustak birovlarning qo'shiqlarini aytib yuradi. Bu davrada tanqli san'atkorning chiqishiga guvoh bo'ldim. U Alisher Fayzning onalar haqidagi bir qo'shig'i aytyapti. Bu - achinarli holat. O'zигайм айтдим о'з устидаша ишлами, янги qo'shiqlar yaratish kerakligini. Bu qiyin ish emas. Masalan, men qiziqchiman, ammo o'zimming 60 ga yaqin qo'shiqlarim bor. Samargandga millionlab sayyoqlar kelyapti. Ularni kutib olishda, albatta, san'atkorlar ishtirot etadi. Shaharda katta imkoniyatlar paydo bo'lyapti. Faqat ulardan to'g'ri foydalanish kerak.

- Sizningcha, aynan Samarqandda turizmni rivojlantirishda san'atning ahamiyatni qanday?

- Davlatimiz rahbari Samargandga bir tashrifda har bir olyi ta'llim muassasasida teatr, ashula va raqs jamaolarini tashkil etish kerakligini aytgandi. Bu katta gap. Tasavvur qiling, 13 ta olyi o'quv yurtining har birida 3 tadan jamaa bo'lsa, bu - 39 ta jamaa degani. Keyinchalik bu ishni boshlashi taklifi bilan rektorlarga murojaat qilganidagi ular har bir jamaoga rahbar kerakligi, ularni oylik maosh bilan ta'minlash lozimligini aytishdi. Bu masalani vazirlikka ham olib chiqdim. Har bir olyi o'quv yurtiga 3 nafar madaniyat xodimi ishga olinsa, 2 million so'mdan oylik berilganda ham 6 million so'm ajaritalishi lozim bo'lar ekan. Afsuski, bu masala hal etilmadi. Menimcha, aynan shunday jamaolar shakllanishi kerak, deb o'layman. Bu Samargandda sayyoqlik salohiyatining oshishiga sezilari darajada hissa qo'sha oladi.

- Bugungi kunda teatr, kinoteatr va konsert tomoshabinlari kamayib ketyapti. Bunga nima deysiz?

- Bir paytlar konsert tashkil qiladigan bo'lsak, e'lon ilib qo'yardik, odamlar o'zlar istab, chipta sotib olib, kiraverardi. Keyinroq tashkilotlarga borib, o'zimiz chipta sotadigan bo'ldik. Hozir uchinchini jarayon ketyapti. Tashkilotlarga borib, chiptalarni bepul tarqatamiz, ammo tomoshabin konsertga kelmayapti. Bu nima de-gani? Oddiy, jaydari tushuntirishga harakat qilyapman. Bu - san'atkor bilan tomoshabin o'rtasidagi mulo-quot shakli eskirdi, degani. Ilmiy ish qilishimdan asosiy maqsad ham ana shuning yangicha shaklini izlab topish, bugungi o'zbek san'atining zamonaviy modulini yaratish. Yaqinda Amerikaga ijodiy safarida bir jarayonga guvoh bo'ldim. Ko'p qavatlari binoning birinchiligi qavati tashqi devoriga bir san'atkorning rasmini ilib qo'yibdi. Ichkarida uning teatri, tamaddixonha. Har kuni muxlislar yig'ilib, shu yerdagi kofe ichib, san'atkor ijodidan bahramand bo'lib ketyapti. Har qanday sahna asarini, jonli kuzatishning zavqi boshqacha. Qolaversa, katta sahnadagi asarlarining tarbiyaviy ahamiyatini ham katta bo'ladi. Albatta, bu asarlar mualliflarining ilmi, salohiyatli ekanligiga ham bog'liq.

- Bugun ijtimoiy tarmoqlar-

- da qiziqchilik qilish maqsadida

- chiqishlar qilayotganlarga, ya'nini

- "vayn"chilarga munosabatingiz qanday?

- Har bir ishning yaxshi va yomon tomonlari bo'lishi mumkin. Ular-

- ning hammasiga ham munosabatim

- salbiy desam, yaxshilariga nohaq-

- lik qilgan bo'laman. "Vayn"chil-

- lar qaytishiga qaytib, u qaysi

- "vayn"chil, desa, otam ham hazilash-

- bo'lgan, "Kampirim-da, kim bo'lardi.

- Menda bosqha xo'jayin

- nima qilsin", dermissiz.

To'Iqin SIDDIQOV

suhbatlashdi.

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:


B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X

Barcode

9 7 7 2 0 1 0 6 6 7 0 9

Sotuvda  
narxi kelishilgan holda



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 662 nusxada chop etildi. Buyurtma 107. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta "Zarafshon" tahririyatining kompyuter bo'limida sahfalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.